

HAR TOMONLAMA FOYDALI TANDEM



M
a
,
I
u
m
k
i
,
2
0
1
8
y
i
l
1
4
i
y
u
l
d

a O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu tijoratlashtirishning asosiy usulluridan biri, bu tijorat tashkilotlarini tashkil etish, bunda ularning ta'sischilaridan biri ustav fondiga hissa sifatida intellektual mulk ob'ekti yoki tayyor texnologiyani kiritgan muassasa hisoblanadi. Mazkur yo'nalish bo'yicha Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi tomonidan samarali faoliyat olib borilmoqda.

Masalan, joriy yilning 16 sentyabr kuni "Zarafshon Golden Group" MChJ bilan Bo'lim o'rtasida ilmiy-ishlab chiqarish, tadqiqot, tadbirkorlik hamda o'quv metodik yo'nalishlardagi hamkorlik memorandumi imzolandi. Ushbu jamiyat muvaffaqiyatli tadbirkorlik sub'ekti bo'lib, Navoiy viloyatida ko'p xonalik xonadonlar ham qurib kelmoqda.

Shuning uchun ham Navoiy bo'limining patentlari mavjud bo'lgan kvarts qumlarini pul'satsion kolonnalar yordamida boyitish hamda vakuum sharoitida fosfogips qurilish materiallarini ishlab chiqarish mavzularida innovatsion ishlanmalariga "Zarafshon Golden Group" MChJ katta qiziqish bildirdi. Xozirgi kunda mazkur jamiyat bilan kelishuvlar imzolash haqida muzokaralar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, Navoiy bo'limning raisi A.Mirzaev 17-19 iyul kunlari Xitoy Xalq Respublikasiga tashrifi chog'ida olib borilgan konstruktiv muzokaralar natijasida "Tianye" Xitoy suv tejash kompaniyasi tomonidan yaqinda ikkita taklif yuborilgani maqsadga muvofiq bo'ldi. Ushbu takliflar Bo'lim bilan Navoiy viloyatida 350 gektar maydonda "aqilli" qishloq xo'jaligi parkini hamda tomchilab sug'orish ishlab chiqarish liniyasini barpo etish kabi loyihalarni o'z ichiga olgan. Mazkur kompaniya vakillari loyihalarni ikki tomonlama muhokamalarda ShHTda a'zo davlatlar Hukumat rahbarlari navbatdagi yig'ilishi zamirida taqdimot qilmoqchilar.

Avval xabar berganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademiklari, yetakchi olimlardan tashkil topgan delegatsiya joriy yilning 5-9 sentyabr kunlari Qirg'izistonda ikki davlat Fanlar akademiyasi hamkorligida tashkil etilgan Xalqaro ilmiy-amaliy seminarda ishtirok etdilar. Seminar ishtirokchilari Qirg'iziston Respublikasining "Social Tree" jamoa birlashmasi kompaniyasining pavlovniya

plantatsiyasiga tashrif buyurishdi hamda Nurota tumanida ham ushbu pavlovniya o'simligina yetishtirish plantatsiyasini tashkil etish haqida kelishildi.

Joriy 16 sentyabrda esa "Social Tree" kompaniyasidan Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi raisi A.Mirzaevga nomiga 19-23 sentyabr kunlari Bishkek shahriga yuqorida aytilgan masala bo'yicha tashrif buyurishi uchun taklif keldi.

Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi jarayonini jadalashtirish yo'lida har tomonlama foydali hamkorlikka tayyor. Yuqorida aytilganlar buning yorqin isboti.